

## Maqsad va maslak

Zamonamiz taraqqiy va madaniyat zamonidir. Lekin bu taraqqiy va bu madaniyatdin eng oz foydalangan yolg‘uz biz Turkiston musulmonlaridirmiz desak xato o‘lmasa kerak.

Chunki millatlar ulum va funun vositasila kundan kun yuqori ko‘tarulub ko‘klarda uchmak martabasina yetushdilar biz esak o‘z g‘aflat va jaholatimiz soyasida tobora yerga kirmoqdamiz.

Boshqa millatlardan ibrat olishni hozirda bir tarafga qo‘yub turub o‘z dini mubinimiz, va muqaddas shariatimiz nuqtasidan o‘z ahvolimizga qarsak ko‘ramizki oramizda sunnat o‘rnida bid’at, axovat (birodarlik) va muhabbat o‘rnida bug‘z va adovat, sadoqat o‘rnida kizb va xiyonat, saxovat o‘rnida xasosat (baxillik), izzat o‘rnida zillat, sarvat o‘rnida maskanat, hidoyat o‘rnida zalolat, saodat o‘rnida shaqovat (baxtsizlik), manfaat o‘rnida muzarrot, vafoq o‘rnida nifoq, ittifoq o‘rnida ixtilof, shafqat va marhamat o‘rnida bo‘hton va g‘iybat... joriy va hukmi farmodir.

Ajabo! Bundin bir necha yil muqaddam porloq tarixlarga molik o‘lan biz Turon xalqi na uchun bu holga tushduk? Buxoroda, Samarcandda, Ho‘qandda, Toshkandda ... tog‘ kabi madrasalar, dorul fununlar vujudga kelturgon zotlar bizim bobolarimiz emasmi edi? Abu Alilar, G‘azoliylar, Farobiylar, Navoiylar, Abu Layslar... kabi faylasuflar, hakimlar, olimlar, adiblar va faqihlar yetushdirgon tufrog‘ shul yoshadiyg‘onimiz Turkiston tufrog‘i emasmi edi?

Boshqa millatlar o‘z ota-bobolari tarafidin vujudga keturulgon osori taraqqiy va madaniyatni kundan kun ziyodalashdurub, isloh qilub turgon bir zamonlarimizda biz turkistonlilar! Bobolarimizning osori madaniyati o‘lan madrasalarimizni isloh bir tarafda tursun bir chetdan buzub g‘isht, tufrog‘ va koshinlarg‘a qadar sotub yemakdamiz...

Boshqa millatlar; o‘zlarining o‘tkan olim va adiblarning ismini qiyomatgacha boqiy qoldirmak harakatida onlarning ismlarina ulug‘ – ulug‘ haykallar, ko‘chalar, maktablar va madrasalar bino qilub turgon bir zamonlarda, biz turkistonlilar o‘tgan hakim va olimlarimizning birini sohirlikka. Ikkinchisi kofirlikka tag‘in bilmam nalarg‘a isnod verub ismlarini avlodimizdan unutdirmakdamiz.

Bundan ma’lum bo‘ldigi biz turkistonlilar hozirda na zamonga qarab harakat qilurmiz na din va shariatimizg‘a bo‘ysunamiz, na tariximizdan ibrat olurmiz. Bizim shul qadar g‘aflat va jaholatimizni ko‘ra turub yanadan sabr va tahmil ila sukul etmak muqaddas vatanimiz va mehribon onamiz o‘lan “Turkiston”ga ko‘p og‘ir keldi.

Shul sababli o‘zinga duruni dildan chiqqan hazin “Sado”si ila o‘z avlodlarina nasihat qilmakka qaror verdi. Mana bizim bu jaridamiz shul vatan muqaddasimiz o‘lan “Turkiston” o‘z avlodlarina so‘ylagan so‘z va chiqargan sadolarining tarjimonini bo‘ladur. Shuning uchun isminida “Sadoyi Turkiston” qo‘ydik. “Turkiston” o‘z sadosini bundan muqaddam ham “Taraqqiy”, Xurshid, Shuhrat, Aziya, Tujjor, Buxoroi Sharif, Turon, Samarcand kabi bir necha tarjimonlar vositasila xalqg‘a eshitdura boshlamish edi. Lekin ul tarjimonlarning ba’zilari vafot va ba’zilari shahid a’lo o‘lub vatan bechoraning kurgan yuraklarin yanadin dog‘ladilar.

Vatanning bulardin boshqa yana “Oyna” va “Turkiston” ismli tarjimonlari bo‘lsa ham o‘zining 6-7 milliyun avlodina faqat ikkigina tarjimon vositasila o‘z arz

holini yetishduromasligi tabiy’idir. Bino alayhi muqaddas onamiz o‘lan vatang‘a shoyad ojizona bir xizmat o‘lsa deb biz ham o‘z zimmamizg‘a “vatan tarjimonligi” kabi bir yukni yuklamakka jasorat etdik.

Lekin o‘z tarafimizdin hech so‘z qo‘shtasdan faqat vatan so‘zini turkiy avlodlarini turkicha lozim o‘lgan vaqtida forsiy avlodlarina forscha, rus avlodlarina ruscha tarjima etub etishdirmak fikrindamiz. Vatan o‘zi ustod muharririn G‘asprinskiy janoblaridin ham keksa va tajribakor o‘ldig‘indin avlodlari uchun hozirda eng zarur bo‘lg‘on maishiy, fanniy, iqtisodiy va tarixiy so‘zlarnigina so‘ylab siyosiy so‘zlardin mumkin qadar saqlanmog‘i tabii’ydir.

Biz esak shuning tarjmoni o‘ldig‘imizdan bundan tashqari chiqmaslik niyatidamiz.

Eshita bu so‘zlardan shoyad bizim yuqorida yozgan “Maqsad va maslak”imiz anglashilg‘on bo‘lsa kerak.

Emdi bu maqsadimizg‘a yetushmak va bu maslakimizda uzun muddat davom etmakka muvaffaq o‘lmak muhtaram dindosh va vatandoshlarmizning ma’nani va moddatan iona millatparvaronalarina mavquf va bog‘laydir.

Muhtaram ahl qalamlarimiz, qalamlari ila ahli sarvatlarimiz sarvatlari ila va yoshlarmiz himmat va g‘ayratlari ila yordam va muovannatda bo‘lunub tursalar biz ham tez fursatda jaridamizni kunlik qilmak fikri va orzusinda o‘ldig‘imizni ojizona arz va e’lon etmak ila xatmi kalom qilurmiz. Va billohit tavfiq.

Ubaydulloh.

*Ubaydulla Asadullaxo‘jayev.*

*“Sadoyi Turkiston” gazetasi. - 1914. - 4 aprel. № 1.  
(O.Z.)*